

5 Nihonarga
Kafedraga



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi:

№ 62-60530600

2024 yil "10" 17

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2024 yil " " "

NAZARIY MEXANIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar matematika, statistika
Ta'lim sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530600 – Mexanika va matematik modelashtirish

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi NZM1234518 NZM1234518 NZM1234518		O'quv yili 2024-2025 2025-2026 2026-2027	Semestr 2, 3, 4	ECTS – Kreditlar 18 (6, 6, 6)	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Nazariy mexanika	242		298	540
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – Nazariy mexanika fani fizika-matematika yo'nalishidagi fan hisoblanadi. U matematika va fizika fanlarini amaliy ilmiy va injenerlik fanlari bilan bog'lovchi asos hisoblanadi. Nazariy mexanika talabalarda ilmiy va injenerlik ishlaridagi fikrlarini oshirish, masalalarni qo'ya bilish va ularni yechish, masalalarni sonli natijalargacha olib kelishda asosiy fan hisoblanadi. Fanning vazifasi – talabalar turli muhandislik sohalariga oid sodda amaliy masalalar uchun hisoblash modellarini tuzish, hisob natijalarini tahlil qila oladigan va ularning natijalarini ola biladigan mutaxassis bo'lib yetishadilar. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Nazariy mexanika Statika: Statikaning asosiy tushunchalari, aksiomalari, bog'lanishlar va ularning turlari. - Bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi va ularning muvozanat shartlari - Kuchning nuqtaga va o'qqa nisbatan momenti. Juft kuch. Juft kuchlar haqidagi teoremlar. - Kuchlar sistemasini bir markazga keltirish. Varin'on teoremasi. - Tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari. - Tekislikdagi parallel kuchlarning muvozanat shartlari. - Tekislikda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasining muvozanati. - Qo'shma qurilmalar muvozanati. Ishqalanish. Kulon qonuni - Ferma va uni hisoblash usullari - Fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini sodda holga keltirish. - Fazoviy kuchlar sistemasining muvozanati. - Fazodagi parallel kuchlar sistemasi. - Og'irlik markazi. Ba'zi tekis shakl va jismlarning og'irlik markazlari Kinematika: nuqta kinematikasi; nuqta harakatining berilish usullari; nuqta trayektoriyasi. Tabiiy uchyotlik. - Nuqtaning tezligi. Sektorial tezlik. - Nuqta tezlanishi; tezlanishning tabiiy uch yoqlik o'qlaridagi ifodasi - Nuqtaning egri chiziqli koordinatalardagi tezlik, tezlanishi. - Ba'zi xususiy hollarda nuqtaning tezlik va tezlanishini aniqlash				

19. Qattiq jism kinematikasi; qattiq jismning ilgarilanma va qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakati; burchak tezligi va burchak tezlanishi;
20. Qattiq jism nuqtalarining tezlik va tezlanishlari.
21. Qattiq jismning tekis parallel harakati; tekis shakl nuqtalarning tezligi; tezliklarning oniy markazi.
22. Tekis shakl nuqtalarning tezlanishi; tezlanishlarning oniy markazi; tezlanishlarning oniy markazini topish usuli.
23. Jismning qo'zg'almas nuqta atrofidagi harakati; Eyler formulasi; jism nuqtalarining tezlik va tezlanishlari.
24. Qattiq jismning murakkab harakati.
25. Tezliklarni qo'shish. Burchak tezliklarini qo'shish.
26. Qattiq jism harakatining umumiy holi; jism harakatini ilgarilanma va aylanma harakatlarga yoyish; ixtiyoriy harakatdagi jismda tezlik va tezlanishlarning taqsimlanishi
27. Nuqtaning murakkab harakati; asosiy va qo'zg'aluvchi sanoq sistemalari; nisbiy, ko'chirma va murakkab harakatlar; tezliklarni qo'shish. Koriolis teoremasi; Koriolis tezlanishi
28. *Dinamika*: asosiy ta'riflar; massa; kuch; inersial sanoq sistemasi; mexanikaning asosiy qonunlari
29. Dinamikaning ikki asosiy masalasi. Ikkinchi masalaning yechimi (to'g'ri chiziqli harakat). Qarshilik mavjud bo'lgan holda jismning erkin tushishi
30. Ikkinchi masalaning yechimi (egri chiziqli harakat). Gorizontga qiya otilgan jism harakati
31. Moddiy nuqtaning erkin tebranishlari. Erkin tebranishlarga muhit qarshiligining ta'siri.
32. Majburiy tebranishlar. Majburiy tebranishlarga muhit qarshiligining ta'siri
33. Mexanik sistema. Asosiy tushunchalar. Massalar markazi, sistema massasi, ichki va tashqi kuchlar. Qattiq jismning inersiya momentlari (o'qqa nisbatan va aralash)
34. Gyugens teoremasi; Inersiya bosh o'qlari; jismning bosh inersiya momentlari. Inersiya ellipsoidi, tenzori.
35. Moddiy nuqta mexanik sistema uchun asosiy teoremlar. Harakat miqdori va harakat miqdori momenti o'zgarishi haqidagi teoremlar. Saqlanish qonunlari
36. Ish va quvvat. Potensial kuch maydoni. Potensial energiya.
37. Kinetik energiyasining o'zgarishi haqidagi teorema.
38. Kepler qonunlari; planetalar harakati; butun olam tortishish qonuni.
39. Nuqtaning nisbiy harakati; nisbiy harakat differensial tenglamalari; nisbiy muvozanat.
40. Moddiy nuqta va sistema uchun D'alamber prinsipi.
41. O'zgaruvchan massali nuqtaning harakat differensial tenglamalari; Meshcherskiy tenglamasi.
42. Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakati differensial tenglamasi.

43. Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakatida o'qqa tushadigan bosimni aniqlash.
44. Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas nuqta atrofida aylanma harakati. Eylarning dinamik tenglamalari.
45. Elementar zarba nazariyasi. Elastik va noelastik zarba. Tiklash koeffitsenti. Yo'qotilgan energiya haqidagi Karno teoremasi.

III. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Nazariy mexanika

1. Uch kuch haqidagi teorema.
2. Tekislikda tas'sir chiziqlari bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi
3. Parallel kuchlar
4. Tekislikda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasining muvozanati
5. Fazoda ta'sir chiziqlari bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi
6. Fazoda ta'sir chiziqlari bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi. Fazoda kuchlarni sodda holga keltirish. Juft kuchlarni qo'shish.
7. Fazoviy kuchlar sistemasining muvozanati.
8. Fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasining muvozanati
9. Qattiq jism kinematikasi; qattiq jismning ilgarilanma harakati; qattiq jism nuqtalarining tezlik va tezlanishlari
10. Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakati; burchak tezligi va burchak tezlanishi; qattiq jism nuqtalarining tezlik va tezlanishlari.
11. Qattiq jismning tekis parallel harakati; tekis shakl nuqtalarning tezligi; tezliklarning oniy markazi
12. Qattiq jismning murakkab harakati.
13. Tezliklarni qo'shish. Burchak tezliklarini qo'shish.
14. Nuqtaning murakkab harakati; nisbiy, ko'chirma va murakkab harakatlar; tezliklarni qo'shish.
15. Harakatga qarab kuchni topish.
16. Moddiy nuqta dinamikasining ikkinchi masalasining yechimi. To'g'ri chiziqli harakat
17. Moddiy nuqta nisbiy harakati.
18. Moddiy nuqta harakat miqdori o'zgarishi haqidagi teorema
19. Moddiy nuqta harakat miqdori momentining o'zgarishi haqidagi teorema.
20. Ish va quvvat. Potensial kuch maydoni. Potensial energiya.

21. Nuqtaning nisbiy harakati; nisbiy harakat differensial tenglamalari; nisbiy muvozanat.
22. Moddiy nuqta kinetik energiyasining o'zgarishi haqidagi teorema
23. Qattiq jismning o'qqa nisbatan inersiya momenti.
24. Qattiq jismning parallel o'qlarga nisbatan inersiya momenti.
25. Erkin tushayotgan jismning sharqqa og'ishi; yer sirtiga yaqin joyda nisbiy muvozanat.
26. Moddiy nuqta va sistema uchun D'alamber prinsipi.
27. O'zgaruvchan massali nuqtaning harakat differensial tenglamalari; Meshcherskiy tenglamasi.
28. Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakati differensial tenglamasi.
27. Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakatida o'qqa tushadigan bosimni aniqlash.
28. Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas nuqta atrofida aylanma harakati. Eylarning dinamik tenglamalari.
29. Elementar zarba nazariyasi. Elastik va noelastik zarba. Tiklash koeffitsienti. Yo'qotilgan energiya haqidagi Karno teoremasi.

Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tekislikdagi kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanati
2. Momentlarni aniqlash va momentlar muvozanati
3. Tekislikdagi parallel kuchlar sistemasi muvozanati
4. Juft kuchlar
5. Tekislikdagi ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasi muvozanati
6. Erkin tebranishlar
7. So'nuvchi tebranishlar
8. Majburiy tebranishlar
9. Mayatniklar bilan tajribalar
10. Inersiya kuchi va qo'zgatuvchi kuch
11. Resonans. Amplituda va fazaviy xarakteristikalar
12. Sirpanish ishqalanish koeffitsientini tajribalarda aniqlash
13. Ko'chmas bloklar hisobi
14. Ko'char bloklar hisobi
15. Zanjirli uzatmalar hisobi
16. Turli tishli uzatmalar kinematikasini o'rganish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

A) Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Tekislikda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini sodda holga keltirish.
2. Fermalar hisobi (Tugunlarni kesish va Ritter usuli).
3. Og'irlik markazini topish usullari.
4. Ba'zi bir jismlarning og'irlik markazi.
5. Egri chiziqli koordinatalarida nuqtaning tezligi va tezlanishi.
6. Lamé koeffitsientlari
7. Jismning qo'zg'almas nuqta atrofidagi harakati;
8. Eylerning kinematik teglamalari;
9. Jism nuqtalarining tezlik va tezlanishlari.
10. Qattiq jismning murakkab harakati.
11. Tezliklarni qo'shish.
12. Burchak tezliklarini qo'shish.
13. Qattiq jismning murakkab harakati.
14. Jismning kesishuvchi o'qlar atrofidagi aylanma harakatlarini qo'shish.
15. Jismning ikkita parallel o'qlar atrofidagi aylanma harakatlarini qo'shish.
16. Jismning ilgarilanma va aylanma harakatlarini qo'shish.
17. Moddiy nuqtaning sodda hollardagi to'g'ri chiziqli harakat differensial tenglamalarini integrallash.
18. Moddiy nuqtaning to'g'ri chiziqli tebranma harakati.
19. Tezlikning birinchi darajasiga proporsional bo'lgan qarshilik kuchi ta'siridagi moddiy nuqtaning erkin tebranma harakati.
20. Nuqtaning tepkili tebranishlari.
21. Bog'lanishdagi nuqta dinamikasining asosiy tenglamasi.
22. Qo'zg'almas silliq sirt ustidagi nuqtaning harakati.
23. Lagranjning birinchi xil tenglamalari.
24. Silliq egri chiziqli bo'ylab harakatlanuvchi nuqtaning harakat differensial tenglamalari.
25. Fizik mayatnik.
26. Matematik mayatnik.
27. Klassik mexanikaning nisbiylik prinsipi.
28. Nuqtaning nisbiy muvozanati. Vaznsizlik.
29. Jismlarning muvozanati va harakatiga Yer aylanishining ta'siri.
30. Jismlarning parallel o'qlarga nisbatan inersiya momentlari haqidagi Gyugens-Shteyner teoremasi.
31. Bir jinsli ba'zi jismlarning inersiya momentlarini hisoblash.
32. Inersiya momentlarini eksperimental aniqlash.
33. Qattiq jismning tekis parallel harakati tenglamalari.
34. Inersiya kuchlari.
35. Dalamber prinsipi.
36. Dalamber prinsipining qo'zg'almas o'q atrofida aylanuvchi jismning o'qqa beradigan bosimini topish masalasiga tadbiri.
37. Zarba nazariyasi.
38. Ikki jismning markaziy zarbasi.
39. Erkin girooskopning harakati.
40. Girooskopning elementar nazariyasi.

	B) Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan masalalar (berilgan masalalar bo'yicha talabalar amaliy masalalarni (hisob-grafik ishlarini) yechishni o'rganishadi): 1. Tekislikda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini sodda holga keltirish. 2. Fermalar hisobi (Tugunlarni kesish va Ritter usuli). 3. Og'irlik markazini topish usullari. 4. Ba'zi bir jismlarning og'irlik markazi. 5. Qattiq jismning tekis parallel harakati; tekis shakl nuqtalarning tezligi; tezliklarning oniy markazi. 6. Tekis shakl nuqtalarning tezlanishi; tezlanishlarning oniy markazi. 7. Nuqtaning murakkab harakati. 8. Moddiy nuqta dinamikasining ikkinchi masalasining yechimi. 9. To'g'ri chiziqli harakat. Egri chiziqli harakat. 10. Moddiy nuqtaning majburiy tebranishlariga muhit qarshiligining ta'siri. 11. Sistema harakat miqdori bosh vektorining va kinetik momentining o'zgarishi haqidagi teorema.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Fanni o'zlashtirishda matematik modellar, avtomatik boshqaruv nazariyasi, zamonaviy nazorat uskunalari va qurilmalaridan keng foydalaniladi. • Maxsus kompyuter dasturlarlarida boshqaruv dasturlarini tuza olish, harakat mexanizmlarini boshqarishni o'rganadilar, internet tizimidagi yangi ma'lumotlar, nazariy maqolalar va ilg'or texnologiyalardan bohabar bo'ladilar • Talaba olgan nazariy bilimlarini amaliy masalalarni yechishga qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishi kerak; • fanning hamma bo'limlari masalalarini yechish bo'yicha amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi; • Talaba kelgusida o'zi tanlagan soxa texnologik jarayonlarida qo'llaniladigan mashina uskunalarining ishonchli ishlashini ta'minlash va nazorat qilish, loyihalash - konstruktorlik ko'nikmalariga ega bo'lish
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • muammoli ta'lim; • paradoks va loyihalash usullari; • amaliy ishlar.
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar:

	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. To'rayev X.T., Tilavov A. Nazariy mexanika. – Toshkent, Noshir - 2012 y. 2. Shohaydarova P. va b. Nazariy mexanika. -T.:1990y. 3. M.Mirsaidov va b. Nazariy mexanika. Toshkent.Fan.-2010 y. 4. Rashidov T.R., Shoziyotov Sh., Muminov K.B. Nazariy mexanika asoslari. – T.: 1990 y. 5. O'razboyev M.T. Nazariy mexanika asosiy kursi. - T.: «O'qituvchi» 1961 y. 6. Meshcherskiy I.V. Nazariy mexanikadan masalalar to'plami. –T.: «O'qituvchi» 1985 y. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Kilchevskiy N.A. Kurs teoreticheskoy mexaniki.– M.: «Nauka», 1977 g. 2. Butenin N.V., Luns Ya.P., Merkin D.R. Kurs teoreticheskoy mexaniki. – M.: «Nauka», 1985 g. 3. O'razboyev M.T. Nazariy mexanika asosiy kursi. - T.: «O'qituvchi» 1961 y. 4. Shohaydarova P. va b. Nazariy mexanika. – T.: 1990 y. 5. Loysyanskiy L.G. Lurye A.I. Kurs teoreticheskoy mexaniki. – M.: «Nauka», Tom I,II. 6. Kilchevskiy N.A. Kurs teoreticheskoy mexaniki.– M.: «Nauka», 1977 g. 7. Yaxyoyev M.S., Muminov K.B. Nazariy mexanika. –T.: «O'qituvchi» 1990 y. Axborot manbalari (saytlar): 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. http://www.edu.ru – ta'lim sayti. 3. http://www.edu.uz – ta'lim sayti. 4. http://www.ziyounet.uz - adabiyotlarning elektron variantlari 5. http://www.intuit.ru – masofaviy ta'lim sayti. 6. http://ru.wikipedia.org – erkin ensiklopediya «Vikipediya».
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi institute O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil <u>24-avgust</u> 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Buranov X.– SamDU MFI “Nazariy va amaliy mexanika” kafedrası dotsenti, f.-m.f.n.

	Dusmatov O.- SamDU MFI “Nazariy va amaliy mexanika” kafedrası professori.,
9.	Taqrizchilar: Abdullayev O. - “Nazariy va amaliy mexanika” kafedrası dotsenti (ichki) Yaxshiboyev Sh. - SamDAQU dotsenti, f.-m.f.b.f.d. (PhD) (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16 - avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida

Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – Ro’zimiradov J.

Kafedra mudiri v.b.:

Institut kengashi raisi:

**SamDU o’quv ishlari
bo’yicha prorektor:**



O'.Nishonov

dots. A.Absanov

A.Soleev

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 60530600 –
Mexanika va matematik modellash tirish ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun "Nazariy mexanika" fani bo'yicha fan dasturga**

T A Q R I Z

Samarqand davlat universiteti 60530600 – Mexanika va matematik modellash tirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Nazariy mexanika" fani uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu fan sillabusi "Nazariy mexanika" fanining barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan. Bu dasturda nazariy mexanika fanini o'rganishda ma'ruza, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Bunda, statikaning asosiy tushunchalari, aksiomalari, bog'lanishlar va ularning turlari, bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi va ularning muvozanat shartlari, markazga va o'qqa nisbatan kuch hamda kuchlar sistemasining momenti, tekislikda kuchlar sistemasining xossalari, kuchning va kuchlar sistemasining nuqtaga hamda o'qqa nisbatan momenti, Bir tekislikda yotgan parallel kuchlar sistemasininig muvozanat shartlari, tekislikda ixtiyoriy ravishda joylashgan kuchlar sistemasining muvozanat shartlari, parallel kuchlar markazi, og'irlilik markazi, og'irlik markazining koordinatalarini topish usullari, ba'zi oddiy jismlarning og'irlik markazini aniqlash mavzulari "Nazariy mexanika" fanining statika bo'imlarini to'liq ochib beradi.

Kinematika qismida esa, nuqta kinematikasi, qattiq jismning ilgarillanma va qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati, tekis harakati, qo'zg'almas nuqta atrofidagi harakati, moddiy nuqtaning murakkab harakati va qattiq jismning murakkab harakati mavzulari fanining kinematika bo'limini to'liq ochib beradi. Undan tashqari fanning dinamika bo'linini nuqta dinamikasining umumiy teoremlari: harakat miqdori, harakat miqdori momentining o'zgarishi haqidagi teorema, kuchning ishi, kuch maydoni, potentsialli kuch, kinetik energiyaning o'zgarishi haqidagi teorema kabi tartiblangan mavzular asosida to'liq ochib beradi.

Mexanika va matematik modellash tirish ta'lim yo'nalishi fan dasturida, ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar fan o'qitilishining natijalari (Shakllanadigan kompetensiyalar), kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu tayyorlangan fan dasturi 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Nazariy mexanika" faniga to'la mos keladi deb hisoblayman hamda bu fan dasturni o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Sarof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

nazariy va amaliy mexanika

kafedrasi dotsenti



O. Abdullayev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 60530600 –

Mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari

uchun "Nazariy mexanika" fani bo'yicha fan dasturga

T A Q R I Z

60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Nazariy mexanika" fani uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu fan sillabusi "Nazariy mexanika" fanining barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan. Bu dasturda nazariy mexanika fanini o'rganishda ma'ruza, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Bunda, statikaning asosiy tushunchalari, aksiomalari, bog'lanishlar va ularning turlari, bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi va ularning muvozanat shartlari, markazga va o'qqa nisbatan kuch hamda kuchlar sistemasining momenti, tekislikda kuchlar sistemasining xossalari, kuchning va kuchlar sistemasining nuqtaga hamda o'qqa nisbatan momenti, Bir tekislikda yotgan parallel kuchlar sistemasininig muvozanat shartlari, tekislikda ixtiyoriy ravishda joylashgan kuchlar sistemasining muvozanat shartlari, parallel kuchlar markazi, og'irlilik markazi, og'irlik markazining koordinatalarini topish usullari, ba'zi oddiy jismlarning og'irlik markazini aniqlash mavzulari "Nazariy mexanika" fanining statika bo'limlarini to'liq ochib beradi. Kinematika qismida esa, nuqta kinematikasi, qattiq jismning ilgarillanma va qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati, tekis harakati, qo'zg'almas nuqta atrofidagi harakati, moddiy nuqtaning murakkab harakati va qattiq jismning murakkab harakati mavzulari fanining kinematika bo'limini to'liq ochib beradi. Undan tashqari fanning dinamika bo'limini nuqta dinamikasining umumiy teoremlari: harakat miqdori, harakat miqdori momentining o'zgarishi haqidagi teorema, kuchning ishi, kuch maydoni, potentsialli kuch, kinetik energiyaning o'zgarishi haqidagi teorema kabi tartiblangan mavzular asosida to'liq ochib beradi.

Mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishi fan dasturida, ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar fan o'qitilishining natijalari (Shakllanadigan kompetensiyalar), kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu tayyorlangan fan dasturi 60530600 – Mexanika va matematik modellash tirish ta'lim yo nali shi talabalari uchun "Nazariy mexanika" faniga to'la mos keladi deb hisoblayman hamda bu fan dasturni o quv jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

SamDAQU, dotsenti, PhD

